



“MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA UCHRAYDIGAN MANSAB VA UNVONLAR

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o'g'li

Qo'qon universiteti dotsenti (v.b.), tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Akramova Mubinaxon Ibrohimjon qizi

Qo'qon universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2025-yil

Tasdiqlandi: 15-yanvar 2025-yil

Jurnal soni: 17

Maqola raqami: 1

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1344>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

Abdulla Qodiriy, “Mehrobdan chayon”, “Tarixi Turkiston”, xon, munshiy, oftobachi, tunqator, Xudoyorxon, Abdurahmon, Niyoz Muhammad.

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida uchraydigan mansab va unvon nomlari asosiy tadqiqot obyekti sifatida tanlangan. Asarda tasvirlangan XIX asr Qo'qon xonligi boshqaruv tizimi doirasida mazkur mansab va unvonlarning kelib chiqishi, ijtimoiy-siyosiy mavqei hamda ular zimmasiga yuklatilgan vazifalar tarixiy manbalar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, romandagi badiiy tasvirlar bilan real tarixiy boshqaruv amaliyoti o'rtasidagi uyg'unlik va tafovutlar aniqlanib, mansab va unvonlarning davlat boshqaruvidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Asarda uchraydigan yigirmadan ortiq unvon va mansablarning vazifasidan kelib chiqib, saroy, harbiy, diniy va qozilik kabi guruhlariga bo'lib, har birining faoliyati aniq jadvallar asosida ko'rsatib berildi. Romanda nomlari keltirilgan Xudoyorxon, Muhammad Rajab, Niyoz Muhammad, Abdurahmon oftobachi kabi ayrim qahramonlarning hayotiga oid ma'lumotlar tarixiy manbalar orqali ochib berish bilan ularning XIX asr xonlik siyosiy va madaniy hayotining yorqin vakillari bo'lganligiga doir mulohazalar ham bildirib o'tildi.

Kirish. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani XIX asr Qo'qon xonligi hayotini aks ettiruvchi muhim adabiy-tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarda xonlikning ijtimoiy-siyosiy tuzumi, davlat boshqaruvi, mansabdor shaxslar faoliyati hamda jamiyat hayotidagi muhim jarayonlar badiiy tasvir orqali yoritilgan. Ushbu jihatlar romanni nafaqat adabiy asar, balki tarixiy manba sifatida ham qimmatli qiladi.

Roman voqealari Qo'qon xoni Xudoyorxon zamonida ro'y berib, muallif asarda xondan tortib otboqargacha bo'lgan qariyb yigirmaga yaqin mansab nomlari tilga oladi. Ushbu mansablar Qo'qon xonligi davridagi davlat boshqaruv tizimining muhim bo'g'inlari bo'lib, ularning har biri muayyan vazifa va vakolatlarga ega bo'lgan.

Maqolada tarixiy manbalar, shuningdek, Qo'qon xonligi boshqaruv tizimini tadqiq etgan olimlarning ilmiy izlanishlariga tayanib holda, romanda keltirilgan mansablarning XVIII–XIX asrlardagi Qo'qon xonligi davridagi vazifalari va o'rni tahlil qilinadi. Bu orqali badiiy asardagi tarixiy voqealarning haqqoniyligi hamda davlat boshqaruviga oid tushunchalarning mazmuni ilmiy asosda yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qo'qon xonligining boshqaruv tizimi, jumladan mazkur boshqaruvni tashkil etgan amaldorlar faoliyatiga oid o'zbekistonlik va xorijlik olimlarning bir qator tadqiqotlari mavjud. Jumladan taniqli manbashunos olim Sh.Vohidov va R.Xoliqovalar tomonidan nashr etilgan “Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan” nomli asarda Qo'qon xonligi boshqaruv tizimida mavjud mansab va unvonlar, hamda ularning qanday vazifalar bajarishidan kelib chiqib tasniflari keltirilgan bo'lsa, Sh.Maxmudovning xonlik boshqaruv tizimiga oid nomzodlik dissertatsiyasida asosan markaziy boshqaruvda faoliyat yuritgan amaldorlar haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Bu kabi ma'lumotlar M.Ahmedovning “Qo'qon xonligining tashkil topishi, davlat tizimi va huquq manbalari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ham o'z aksini topgan. Xorijlik olimlar qatorida F.Otaxonovning “Qo'qon xonligining markaziy tashkiloti”¹ nomli dissertatsiyasining to'rtinchi bo'limi aynan xonlikdagi mansab va unvonlar tadqiqiga bag'ishlanganligini ta'kidlash kerak.

Metodologiya. Ushbu tadqiqot ishida tarixiy taqqoslash uslubidan keng foydalanildi, bunda badiiy asardagi ma'lumotlar tarixiy haqiqatlarga qay darajada to'g'ri kelishi aynan xonlik davrida yaratilgan asarlarni o'rganib, ulardagi ma'lumotlarni badiiy asardagi qaydlar bilan taqqoslash orqali ochib berildi. Shuningdek klassifikatsiyalash metodi orqali romanda keltirilgan mansab va unvonlar guruhlariga ajratildi. Tarixiy haqiqat va badiylikni to'g'ri tushinishda sinxron uslub imkoniyatlaridan ya'ni bir davrda yaratilgan xonlik tarixiga oid ilmiy asar “Tarixi Turkiston” va xonlik tarixini badiiy bo'yoqlarda aks ettiruvchi

“Mehrobdan chayon” asarlaridagi unvon va mansab nomlari bir-birini to'ldirgan holda izohlandi.

Natijalar. Roman qahramonlaridan biri – Xudoyorxon bo'lib, u Qo'qon xonligini XVIII–XIX asrlarda boshqargan Ming sulolasining so'nggi hukmdorlaridan, uzilishlar bilan uch marotaba (1845 – 1858, 1862 – 1863, 1865 – 1875 yillar) xonlik qilgan hukmdordir. Maqola uchun tanlangan mavzu nuqtayi nazaridan Xudoyorxon asarda xon mansabida tasvirlanadi. Asarning “Zulm o'chog'i” nomli bobida uning taxtga chiqishi hamda hukmronligi davrida amalga oshirgan siyosiy faoliyati badiiy jihatdan yoritib berilgan.

Xon Qo'qon xonligi davlat boshqaruvida eng oliy markaziy mansab bo'lib, u mo'g'ulcha “qoon” (hukmdor) so'zidan kelib chiqqan. Xon hokimiyati amalda cheklanmagan bo'lib, davlat ichki va tashqi siyosatini belgilash, farmonlar chiqarish hamda ularning ijrosini nazorat qilish vakolati to'liq uning qo'lida bo'lgan². Shu jihatdan xon davlat boshqaruv tizimining asosiy va hal qiluvchi bo'g'ini hisoblangan.

“Mehrobdan chayon” romanining bosh qahramonlaridan biri – Anvar bo'lib, u Xudoyorxon saroyida xizmat qiluvchi munshiylar faoliyatiga rahbar sifatida bosh munshiy mansabiga tayinlanadi.³ Mazkur lavozim asarda muhim saroy mansablaridan biri sifatida tasvirlanadi. Shu o'rinda, Anvar egallagan bosh munshiylik mansabi qanday vazifalarni bajargan, ushbu lavozim Qo'qon xonligi davriga oid tarixiy manbalarda mavjud bo'lganmi, degan savollar tug'iladi. Bu masalalarga Qo'qon xonligi tarixiga oid yozma manbalar hamda tadqiqotchilar asarlari asosida javob topish mumkin. Dastlab, “Munshiy” atamasi haqida qisqacha ma'lumotlarni keltirib o'tsak. “Munshiy” so'zi arabcha bo'lib, “kotib”, “yozuvchi”, “ijodkor” kabi ma'nolarni anglatadi. O'rta Osiyo xonliklari davrida munshiylar xonlar yoki yirik mansabdor shaxslarning shaxsiy kotiblari bo'lib, rasmiy yozishmalar, farmonlar va maktublarni yozish bilan shug'ullanganlar. Munshiylik lavozimiga, odatda, savodli, husnixat va ihlmi kishilar tayinlangan.

Munshiylar oddiy kotiblardan o'zlarining bilim darajasi va ma'rifati bilan ajralib turgan. Ular ko'pincha olim va fozil shaxslar bo'lib, xon va amirlarning rasmiy hujjatlarini tuzish, davlat yozishmalarini yuritish vazifalarini bajarganlar. Shuningdek, bu lavozimda faoliyat yuritgan shaxslar “munshiy” so'zini o'z ismlariga taxallus sifatida qo'shib ishlatganlari ham tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarda xonlar saroyida xizmat qilgan bir nechta munshiylar haqida ma'lumotlar uchraydi. Shulardan biri Muhammad Alixon devonida saroy munshiyi lavozimida faoliyat yuritgan Zohid munshiydir. Manbalarga ko'ra, u Qo'qon xonligi 1842-yilda Buxoro amirligi tomonidan bosib olingach,

¹ Otakhonov F. Kokand Hanligi Merkez Teskilati. Doktora Tezi. Avgust 2023.

² Vohidov Sh., Xoliqova P. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan. – Toshkent: Yangi asr avlodlari, 2006. – B. 9.

³ Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён (Худойорхон ва муншийлари ҳаётининг тарихий рўмон). – Toshkent: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. – Б. 42.

Buxoroga olib ketilgan va u yerda miroxurlik vazifasiga tayinlangan. Po'latjon Qayyumiyning yozishicha, Zohid munshiy yozuv-chizuv ishlarida nihoyatda mohir bo'lganligi sababli "xush tahrir insho yozmishda shuhratga ega bo'lganidan oxirida devon saroyi Buxoroda avzoi nazmlar bilan mudda'oni tahrir etmishda mohir ekani mashhur bo'ldi"⁴, deya e'tirof etadi. Ushbu ma'lumotlar Qo'qon saroyida munshilik mansabi amalda mavjud bo'lganini va munshiylar devon ishlarida, xususan, rasmiy hujjatlar hamda yozishmalarni yuritishda muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Devonda bir qancha munshiylar faoliyat ko'rsatar edi, ularga rahbar sifatida sarmunshiy boshchilik qilgan⁵.

Endi roman voqealariga murojaat qiladigan bo'lsak, asarda bosh qahramon Anvar Muhammad Rajab vafotidan so'ng uning o'rniga bosh munshiy mansabiga tayinlanadi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, Muhammad Rajab tarixiy shaxs bo'lib, u haqiqatda Qo'qon xoni Xudoyorxonning munshiysi bo'lgan. Tarixiy manbalarda bu haqda quyidagi ma'lumot uchraydi: Xudoyorxon bilan uning akasi Mallabek o'rtasida ziddiyat yuzaga kelib, ular orasida dushmanlik kuchaygan bir paytda Xudoyorxon akasiga nasihat mazmunidagi maktub yo'llashni buyuradi. Bu farmonni bajarish vazifasi "bilimdonlik devonining munshiysi" sifatida Muhammad Rajab zimmasiga yuklatiladi.

Manbada qayd etilishicha, Xudoyorxon ushbu maktubda hukumat g'ururiga berilmaslik, lashkar va sipohning ko'pligiga suyanib adolatsizlikka yo'l qo'ymaslik, balki yurt osoyishtaligi va millat tinchligi yo'lida hushyorlik va yetuklik bilan ish tutish zarurligini ta'kidlagan. Mazkur farmonni ijro etish maqsadida "piri fozil" sifatida e'tirof etilgan Muhammad Rajab munshiy rasmiy maktubni an'anaviy uslubda – hamd, na't va sahobalar nomi bilan bezab, yuksak badiiy va ma'naviy saviyada kitobat qilgan⁶.

Keltirilgan tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qodiriy romanda tasvirlagan qahramonlar hamda ular egallagan mansab va unvonlar badiiy to'qima bo'libgina qolmay, balki real tarixiy shaxslar va amalda mavjud bo'lgan davlat lavozimlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu holat "Mehrobdan chayon" romanining tarixiy haqiqatga tayanib yaratilganligini yana bir bor tasdiqlaydi.

"Mehrobdan chayon" romanida uchraydigan mansablardan yana biri – oftobachi mansabidir. Asarda mazkur mansab egasi Abdurahmon oftobachi nomi bir necha o'rinlarda qayd etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Abdurahmon oftobachi Xudoyorxon saroyida xizmat qilgan va aynan ushbu lavozimda faoliyat yuritgan tarixiy shaxs hisoblanadi. U haqda tarixiy manbalarda ham muayyan ma'lumotlar uchraydi. Oftobachi mansabi xonning xos mulozimlari sirasiga kirib, xonning

yuvinishi va tahorat olishi jarayonida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan⁷.

Asarda uchraydigan ayrim mansablar va ularga bevosita asar tagsharhlarida berilgan izohlarda ba'zi tushunmovchiliklar ham kuzatiladi. Jumladan, asarning ko'plab o'rinlarida Niyoz Muhammad shog'ovulboshi nomi qayd etiladi va unga berilgan tagsharhda u Xudoyorxonning shog'ovulboshisi, ilmiy vaziri, "Tarixi Shohruxiy" asarining muallifi, shoir sifatida izohlanadi.

Mazkur izohni Niyoz Muhammad shaxsi va shog'ovulboshi mansabi haqidagi tarixiy manbalar asosida tahlil qiladigan bo'lsak, ayrim aniqlashtirishlar kiritish zarur bo'ladi. Birinchidan, izohda ta'kidlanganidek, Niyoz Muhammad haqiqatdan ham "Tarixi Shohruxiy" asarining muallifidir. Ushbu asar muallif tomonidan Xudoyorxon topshirig'iga binoan 1871–1872-yillarda yozilgan⁸.

Biroq tarixiy manbalarda va Niyoz Muhammadning hayoti hamda ilmiy merosini o'rgangan tadqiqotchilar asarlarida uning saroyda aynan shog'ovulboshi mansabida faoliyat yuritgani haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Aksincha, manbalarda uning harbiy shaxs bo'lgani, xonning harbiy yurishlarida ishtirok etgani, keyinchalik esa harbiy xizmatni tark etib, attorlik bilan shug'ullangani qayd etiladi. Shu bilan birga, Xudoyorxon tomonidan unga muhim va mas'uliyatli vazifa — tarixiy asar yozish topshirilgani inobatga olinsa, Niyoz Muhammadni xonlik saroyidagi tarixnavislar yoki ilm ahlining vakillaridan biri sifatida baholash mumkin.

Endi shog'ovulboshi (*shig'ovul*) mansabiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu lavozim Qo'qon xonligi markaziy boshqaruv tizimida muhim o'rin egallagan. Shig'ovul xonlikka chet mamlakatlardan siyosiy, iqtisodiy va diplomatik maqsadlarda kelgan elchilarni kutib olish, ularni joylashtirish hamda ularning xonlik hududidagi faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish uchun mas'ul bo'lgan mansabdor shaxs hisoblangan⁹.

Muhokama. Yuqorida romanda keltirilgan mansablarning shu mansabda faoliyat olib borgan shaxslar bilan birga tahlil etgan bo'lsak, quyida asarda uchrovchi boshqa unvon va mansablarni Qo'qon xonligidagi vazifalarini kengroq muhokamaga tortamiz.

Asarda, xon, munshiy, oftobachi, shig'ovul kabi yuqori davlat amallari bilan birga mufti, zakotchi, xudaychi, mingboshi, qushbegi, shayxulislom, otaliq, qozi-quzzot, rais, tunqator, dasturxonchi kabi ko'plab mansablar haqida ham so'z yuritiladi. Ta'kidlash joizki, yuqorida sanab o'tilgan mansab va unvonlarning barchasi XIX asr Qo'qon xonligi boshqaruv tizimida amalda mavjud bo'lgan hamda davlat va jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan lavozimlar hisoblanadi. Ularning aynan qanday vazifalar bajarganliklarini quyidagi jadvalda batafsil ko'rsatib o'tamiz.

"Mehrobdan chayon" romanida keltirilgan mansab va unvonlarning izohi

Saroy unvon va mansablari

№	Mansab va unvon nomi	Qo'qon xonligi boshqaruv tizimida qanday vazifa bajarganligi
1.	Otaliq	Xon yoki shahzodaning murabbiysi, ularning homiylari hisoblanib, ular tarbiya qilgan shahzoda taxtga o'tirishi bilan o'zlari ham yuqori mansab va amallarga sohib bo'lganlar ¹⁰ .
2.	Xudaychi	Bu zot xonga ad'yutant hukmda bo'lib, xonga maxsus beriladurgon ariza va bo'lak ishlarga vosita bo'ladur ¹¹ .
3.	Tunqator	Bu mansabdagi odam xonning maxsus yotadigan joyiga posbondek, kechasi doimo uxlamay xonni amriga muntazir bo'lib turadi ¹² .
4.	Dasturxonchi	Xonlik markaziy boshqaruv tizimida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik mansablardan biri. Dasturxonchi nomi Qo'qon xonligi tarixiga oid manbalarda ko'p tilga olinadigan mansablardan bo'lib, bu vazifani bir kishi bajargan. Ushbu mansabdagi kishi o'z nomidan kelib chiqqan holda saroyda oliy martabali mehmonlar uchun uyushtiriladigan va turli bayram kunlari o'tkaziladigan marosim, kechalarni tashkillashtirib, boshqarib borish bilan bir qatorda davlatning bosh xazinaboni ham hisoblangan ¹³ .
5.	Zakotchi	Chegara hududlaridagi bojxona bosh nazoratchisi. xon yoki bek tomonidan tayinlangan, uning yonida esa bojxona mavqeiga qarab 5–6 ta yordamchisi bo'lgan. Chegara

⁴ Қайюмов П.Д. Таъкири ай Қайюмий. / Нашрга тайёрловчи Азиз Қайюмов – Тошкент: ЎзР ФАҚИ, 1998. – Б. 260.

⁵ Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 17.

⁶ Аваз Мухаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамойи (Оламни кўрсатувчи тарих) / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифари Воҳидов Ш. – Тошкент, 2012. – Б. 152.

⁷ Мулло Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 237.

⁸ Ниёз Мухаммад Хўқандий. Ибратул Хавақин (Тарихи Шохрухий). – Тошкент. 2014. – Б. 4.

⁹ Махмудов Ш.Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 82

¹⁰ Аҳмедова М.Т. Қўқон хонлигининг ташкил топиши, давлат тизими ва ҳуқуқ манбалари: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2010. – Б. 47.

¹¹ Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 7.

¹² Мулло Олим Маҳдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 165-166.

¹³ Махмудов Ш.Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 86

		bojxonasidan o'tgan karvon o'zlari kelgan dastlabki shahar darvozasi oldida to'xtagan va shahar zakotchisiga xabar yuborgan. Zakotchi o'z yordamchilari bilan kelib, karvonni tekshiruv maydoniga olib kelgan va bojxona yuborgan ro'yxatda ko'rsatilgan ma'lumotlarni to'g'ri yoki noto'g'riligini tekshirgan ¹⁴ .
6.	Jarchi	Xonning farmon va buyruqlarini jar solib e'lon qiluvchi.
7.	Sarkor	Soliq tizimidagi amaldorlardan biri.
8.	Sayis	Otboqar

Harbiy unvon va mansablar

№	Mansab va unvon nomi	Qo'qon xonligi boshqaruv tizimida qanday vazifa bajarganligi
1.	Mingboshi	Davlat boshqaruvida oliy hukmdordan keyingi o'rinda turuvchi mansab egasi, Bosh vazir.
2.	Qushbegi	Markaziy boshqaruv tizimida mingboshidan keyingi pog'onada <i>qo'shbegi</i> mansabi turgan bo'lib, hukumat olib borgan siyosatini amalga oshirishda bu mansabdor muhim vazifalarga mas'ul edi. Qo'qon xonligida qo'shbegini mansablar qatoriga emas balki unvonlar qatoriga qo'shsa to'g'ri bo'ladi. Bu unvon egalari harbiylar qatoridan ham o'rin olgan bo'lib, davlatning harbiy kuchlari boshqaruvida faol ishtirok etishgan ¹⁵ .
3.	Qo'rboshi	Qo'rxona ya'ni, qurol-aslaha, yaroq, to'p yasash ishxonalarining boshlig'i. Xon va mingboshiga itoat qilardi. Xudoyorxon so'nggi xonlik davrida (1866-1875-yillar) qo'rboshi qo'rxona, miltiqxona, to'pxona (ishxonai to'pxona)larga boshchilik qilib, xomashyo topib kelishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va ularni xon qaroriga binoan tarqatib berish jarayonigacha javobgar edi ¹⁶ .
4.	Dahboshi	O'nboshi, o'n nafarlik jang dastasining sardori ¹⁷ .

Diniy va qozilikka mansub unvon va mansablar

№	Mansab va unvon nomi	Qo'qon xonligi boshqaruv tizimida qanday vazifa bajarganligi
1.	Shayxulislom	Xonlikdagi muhim diniy unvon bo'lib, mazkur unvon Qo'qon xoni Umarxon davrida joriy etilgan. Xon huzurida Oliy maslahat kengashi faoliyat yuritgan bo'lib, unda davlat miqyosidagi ishlar ko'rilgan edi, Shayxulislom shu kengashning doimiy a'zosi bo'lgan.
2.	Mufti(y)	Xonlikda qozilik tizimi bilan bog'liq unvon va amallardan biri bo'lib, fatvo beruvchidir. Ular shariat asoslari va musulmon qonunshunosligi bo'yicha keng qamrovli bilimga ega bo'lishlari lozim bo'lib, turli munozarali masalalar yuzasidan Qur'oni Karim va hadislar asosida «fatvo»lar ishlab chiqqanlar va o'z muhrlarini bosganlar. Qozilar o'z hukmlarini chiqarishda ularni inobatga olgan ¹⁸ .
3.	Qozi-quzzot	Qozilar qozisi (adliya vaziri) ¹⁹
4.	Rais	Qo'qon xonligi boshqaruv tizimidagi markaziy siymolardan biri. Uning vazifalaridan biri aholining axloqi, turish-turmushini kuzatib turishdan iborat. Shuningdek ular bozorlardagi savdo-sotiq jarayonida ma'lum tartib-intizomga rioya qilinishini ham kuzatib borganlar, shuningdek shahardagi musulmon bo'lmagan aholining o'zini tutishi, shahar ichki tartibiga bo'ysinishini ham nazorat qilganlar. ²⁰
5.	Mudarris	Madrasada dars beruvchi shaxs bo'lib, xon tomonidan tayinlangan. Madrasa mudarrisilari davlat va jamiyatning eng ko'zga ko'ringan, madaniy-ma'naviy muhit rivojiga hamda mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta hissa qo'shgan faol shaxslar bo'lganlar. Ularning aksariyati diniy mansab egalari bo'lish bilan birga madrasalarda talabalarga saboq berish bilan ham mashg'ul edilar ²¹ .
6.	Muazzin	Masjidlarda azon aytuvchi.
7.	Imom	Masjid imomi.
8.	Mirshab	Tungi soqchi.
9.	A'lam	Faqih olim va shariat qoidalarining bilimdoni.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarida keltirilgan mansab va unvonlar o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan Qo'qon xonligi markaziy boshqaruv tizimi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu mansabdor shaxslar xonlik boshqaruvida muayyan vazifalarni bajargan bo'lib, davlatning turli sohalarini faoliyatiga mas'ul hisoblangan.

Asarda mansab va unvonlarga oid ayrim kamchilik va noaniqliklar mavjud bo'lishiga qaramay, unda XIX asr saroy boshqaruvi hamda amaldorlar faoliyati haqida o'quvchiga muayyan ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradigan boy va muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

¹⁴ Мадрохимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Наманган, 2009. – Б. 132.

¹⁵ Махмудов Ш.Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2007. – Б. 80

¹⁶ Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 12.

¹⁷ Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 12.

¹⁸ Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени... – С. 41.

¹⁹ Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 19.

²⁰ Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари XVI – XIX асрнинг ўрталарида – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017. – Б. 69-70.

²¹ Алихожиев М. О. Қўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тугган ўрни (1800-1876 йй.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2012. – Б. 80.

1. Абдулла Қодирий. Меҳробдан чаён (Худоёрхон ва муншийлари ҳаётидан тарихий рўмон). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994.
2. Аваз Муҳаммад Аттор Хўқандий. Тарихи жаҳоннамои (Оламни кўрсатувчи тарих) / Форс-тожик тилидан таржимон, кириш, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифари Воҳидов Ш. – Тошкент, 2012.
3. Агзамова Г. Ўзбекистон шаҳарлари XVI – XIX асрнинг ўрталарида – Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017.
4. Алихожиев М. О. Қўқон хонлигининг маданий ҳаётида мактаб ва мадрасаларнинг тутган ўрни (1800-1876 йй.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2012.
5. Аҳмедова М.Т. Қўқон хонлигининг ташкил топиши, давлат тизими ва ҳуқуқ манбалари: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2010.
6. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
7. Қайюмов П.Д. Тазкираи Қайюмий. / Нашрга тайёрловчи Азиз Қайюмов – Тошкент: ЎзР ФАҚИ, 1998.
8. Мадраҳимов З. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Наманган, 2009.
9. Махмудов Ш.Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709-1876 йй.): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2007.
10. Мулло Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.
11. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул Хавоқин (Тарихи Шохрухий). – Тошкент. 2014.
12. Семенов А.А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени...
13. Otakhonov F. Hokand Hanlığı Merkez Teşkilatı. Doktora Tezi. Ağustos 2023.